Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Rahmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI ORQALI AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI

Taylakova Dilafruz Baymamatovna

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'qituvchisi



Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari, iqtisodiyotni bosqichma-bosqich isloh qilish masalasi yo'lga qo'yildi. Aholining sotsial muammolarini hal qilish, aholi turmush sharoitini yaxshilash orqali qishloq joylarda aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mavjud resurslar, aholining ilmiy salohiyati, innovatsion qobiliyat, fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanishni nazarda tutilgan. Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda evolyutsion modeli ishlab chiqildi va ilmiy tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, turizm, qishloq xo'jaligi, aholi bandligi, xizmat ko'rsatish, sotsial muammolar, innovatsiya, investitsiya, aholi turmush tarzi, raqamli xizmatlar.

Abstract: In this article, the issue of the integrated development of the service sector in our country was considered, the essence, goals and objectives of the service sector, the gradual reform of the economy were revealed. It provides for solving social problems of the population, ensuring employment of the population in rural areas by improving the living conditions of the population and the most effective use of available resources, scientific potential of the population, innovative abilities, technical achievements of science in the implementation of economic reforms. In the service sector, an evolutionary model for the development of innovations in the economy was developed and scientific recommendations were given.

Key words: Digital technologies, tourism, agriculture, employment, services, social problems, innovations, investments, lifestyle of the population, digital services.

Аннотация: В данной статье был рассмотрен вопрос комплексного развития сферы услуг в нашей стране, раскрыта сущность, цели и задачи сферы услуг, поэтапное реформирование экономики. Предусматривается решение социальных проблем населения, обеспечение занятости населения в сельской местности путем улучшения условий жизни населения и наиболее эффективного использования имеющихся ресурсов, научного потенциала населения, инновационных способностей, технических достижений науки при реализации экономических реформ. В секторе услуг была разработана эволюционная модель развития инноваций в экономике и даны научные рекомендации.

Ключевые слова: Цифровые технологии, туризм, сельское хозяйство, занятость, услуги, социальные проблемы, инновации, инвестиции, образ жизни населения, цифровые услуги.

KIRISH

Mamlakatdagi qishloq joylarda resurslar kam talab etadigan xizmatlar sohasini tanlash, raqamli, onlayn xizmatlarni rivojlantirish va keng ko'lamda foydalanish kerak ekanligi o'z isbotini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohaga imtiyozlar berish, qishloq joylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish va aholi bandligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur ustuvor vazifalarni ijrosini ta'minlashda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi bandlik darajasini oshirish, raqamli texnologiyalar hamda innovatsion faoliyatni ishlab chiqarish, infratuzilma va ilmiy ta'minot integratsiyasi asosida rivojlantirish kabi yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida qishloq joylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirishni konseptual yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, rivojlanishning ilg'or va optimal variantini tanlashga intildi. Bunday tanlovlar orqali xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, iqtisodiyotni bosqichma-bosqich isloh qilish masalasini qo'ydi. Aholining sotsial muammolarini hal qilish, aholi turmush sharoitini yaxshilash yosh mamlakat uchun quyidagi islohotlarni amalga oshirish kerak ekanligini ko'rsatdi:



- Birinchidan mulkiy munosabatlar islohoti;
- Ikkinchidan agrar islohoti;
- Uchinchidan moliya-kredit islohoti;
- To'rtinchidan sotsial islohotlar;
- Beshinchidan tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti ^[1].

Har bir mamlakat rivojlanishning muqobil usullarini izlashga harakat qiladi va shu orqali mamlakatda mavjud resurslar, aholining ilmiy salohiyati, innovatsion qobiliyat, fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanadi.

Xizmatlar sohasi asosida xizmat bo'lib, ushbu faoliyat turli jarayonlarni amalga oshirishda ishtirok etadi. Avvalo, "xizmat" so'zi, asosan, quyidagi ikki xil lug'aviy ma'noga ega: – boshqa bировga foyda keltiruvchi harakat va biror kimga xo'jalik qulayliklarini taqdim etmoq ^[2].

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLARNI TAHLIL QILISH

Buyuk iqtisodchi Adam Smit (1723-1790) xizmat shaklidagi noz-ne'matlarning iqtisodiy mazmunini to'laroq ochib berish hamda uning mamlakat ijtimoiy boyligining manbasi sifatida qarash muammosini hal etish maqsadida o'zining jahonga mashhur "Halqlar boyligining tabiat va sabablari tadqiqoti" (1766) nomli asarida "unumli mehnat" va "unumsiz mehnat" tushunchalari xususida fikr bildirgan ^[3]. Shu orqali A. Smit moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishni farqlab dastlabki xizmat tushunchasi yaralishiga katta hissa qo'shgan.

Xizmat tushunchasi yaralishiga katta hissa qo'shgan A. Smitning moddiy va nomoddiy qarashini yanada mukammal aks ettirgan olim M. M. Muxammedov o'zining "Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari" nomli monografiyasida "inson iste'moli uchun zarur bo'lgan har qanday noz-ne'mat (ya'ni u moddiy yoki nomoddiy bo'lishidan qat'iy nazar) ishlab chiqarishga sarflangan mehnat baribir jamiyat uchun foydali, samarali unumli deb qaralishi va ijtimoiy boyluk tarkibiga, albatta, kiritilishi lozim", ^[4] deb qaraydi. Shu orqali olim har qanday ne'mat yaratishga qaratilgan mehnat qatori xizmat ko'rsatishda band bo'lganlarning mehnati ham qiymat va iste'mol qiymatini yaratishga qodirligini ilmiy isbotlaydi.

"Xizmat" atamasi olimlar tomonidan iqtisodiy adabiyotlarda turlicha nuqtayi nazardan qo'llanilib iqtisodiy bilim sohasiga bog'liq holda talqin qilinadi. Ushbu atama doirasida ko'plab xorijlik va mahalliy olimlarimiz nazariy tadqiqotlar olib borishgan. Taniqli olimlardan biri F. Kotler bo'lib, u xizmatga quyidagicha ta'rif beradi: "Xizmat – bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatdir" ^[5].

Respublikamizning taniqli olimlaridan I. S. Tuxliyev: "Xizmatlar – ko'zga ko'rinmas tovarning o'ziga xos turidir" ^[6] deydi va ushbu yondashuvda olim xizmatni tovar xususiyatini ifodalagan, ya'ni, xizmatlar ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish jarayonlaridagi mehnat munosabatlarini o'zida aks ettiradi, ammo ishlab chiqarish jarayoni natijasi nomoddiy shaklga ega bo'ladi deb ta'kidlashga harakat qiladi. Xizmat tushunchasiga I. Ochilov tomonidan berilgan ta'rif boshqalariga nisbatan mazmun va mohiyat jihatidan takomillik kasb etgan va u quyidagi shaklda berilgan: "Xizmat deyilganda, insonning, xo'jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyati tushuniladi" ^[7] deb ta'rif bergan.

Professor M. Q. Pardayevning fikriga ko'ra, "Xizmat ko'rsatish sohasi deyilganda, ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalari tushuniladi. U o'z ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (qurilish, transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi" ^[8] deya mukammal ta'rif berib, inson ijtimoiy faoliyati rivojlanishida unga ko'maklashadigan muhim tarmoq va soha sifatida aynan xizmat ko'rsatish sohasini keltiradi. Shu orqali olim xizmat ko'rsatish sohasini to'g'ridan-to'g'ri inson iste'moliga yo'nalishini moddiy va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohasi sifatida har bir iste'molchi og'irini yengil qiladigan soha ekanligini ilmiy isbotlaydi.

B. B. Mardonov fikricha: "Xizmat iqtisodiy kategoriya bo'lib, u iste'molchi ehtiyojini qondirishga (og'irini yengil, uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilishga) va ularning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan mehnat faoliyatining keng tarqalgan turidir" ^[9] deb ta'riflab iste'molchi xizmatning muhim bo'g'ini ekanligini asoslagan.

Yuqoridagi olimlarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib aytish mumkinki davlat, jamiyat, korxonalar va tashkilotlar yoki yakka iste'molchi bo'lishidan qat'iy nazar o'z talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli ko'rinishdagi xizmatlarni iste'mol qilmoqda. Shu sababli xizmatlarni iste'mol qilishga qaratilgan ularning talab va ehtiyoji xizmat ko'rsatish sohasining munosib rivojlanishida aynan xizmat ko'rsatish sohasining o'zi soha va tarmoqlarning lokomotivi ekanligining yaqqol dalilidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologiyasi mamlakatda resurslar kam talab etadigan xizmatlar sohasini tanlash, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va ulardan keng ko'lamda foydalanib bormoqda.



TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda xizmat turlarining kengayishi kishilik jamiyatida talab va ehtiyojning kuchli ta'sir doiraga ega bo'layotganligini ko'rsatadi. Xizmatlar sohasi inson tamadduni taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Iqtisodchi olimlar tomonidan xizmat ko'rsatish sohasining mazmun mohiyatini ochishga urinish nazariy-mantiqiy ahamiyati xususida ko'plab ilmiy fikr-mulohazalar bildirganlar. Ammo ular evolyutsion model xususida to'xtalishmagan. Iqtisodiyotning turli davrlarda sayqallanishi kishilik jamiyatidagi iqtisodiy evolyutsiya natijasi demakdir. Shu sababli kishilik jamiyatidagi iqtisodiy evolyutsiya natijasida xizmatlar sohasining iqtisodiyotda muhim sektorlardan biri bo'lishiga olib keldi. Uning holati qolgan sektorlarning rivojlanishiga bog'liq va munosib holda shakllandi. Xizmatlar sohasi dunyo iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Shu sababli xizmatlar sohasining iqtisodiy mohiyatini anglashda rivojlanish sivilizatsiyasini uchta katta bosqichga bo'lib ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu bosqichlar agrar jamiyat, industrial va postindustrial jamiyatlardir.

Agrar jamiyatda (quldorchilik, feodal formatsiyalar va kapitalistik rivojlanishning dastlabki bosqichlari) sanoat umuman rivojlanmagan, qishloq xo'jaligiga qaraganda kam odamlarni ish bilan ta'minlar edi. O'sha davrlarda xizmatlar sohasida asosiy o'rinni uy xizmatkorlari egallagan.

Amerikalik mashhur iqtisodchi Djon Gelbreyt ushbu davrdagi xizmat xususiyatlarini quyidagicha ta'riflaydi: "Industrialdan oldingi davrda qishloq xo'jaligidan tashqari iqtisodiyot faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning ko'pchilik qismi bir insonning ikkinchisiga shaxsiy xizmat qilishiga qaratilgan. Bunday faoliyatga ovqat pishirish, ta'lim berish, insonni tashqi xavfdan himoya qilish, va boshqa bir qator xizmatlar kiradi. Xizmat ko'rsatuvchi inson (faqat din vakilidan tashqari) xizmatlar iste'molchisidan bevosita bog'liq bo'lgan, qullarcha xizmat ko'rsatish o'z-o'zidan xizmatning tarkibi hisoblangan. Astoydil xizmatkorga yo'naltirilgan maqtovlar uning past ijtimoiy holatini alohida ko'rsatardi" [10].


Postindustrial jamiyat nazariyasining asoschisi Daniel Bell ushbu ijtimoiy tizimni quyidagicha ta'riflaydi: "Past mehnat unumdorligi va aholi sonining ko'pligi band bo'lmaganlar sonining oshishini asoslaydi, ular qishloq xo'jaligi va uy xizmatlari sohasiga taqsimlanadi. "Shu sababli xizmat sohasida band bo'lganlarning ko'pchilik qismi shaxsiy xizmatlar bilan shug'ullanishganlar. Ko'pincha xizmatkorlar faqat qorin to'yg'azish uchun ham mehnat qilishganlar, uydagi ish arzon va keng tarqalgan. Angliyada viktorian davrining o'rtalarida xizmatkorlar sinfi eng ko'pchilikni tashkil etgan" [11].

Xizmatkorlarni u yoki bu jihatdan ta'minlangan kishilar sifatida saqlashganlar. Shu sababli insonlarning juda katta qatlami yoki sinfi vujudga keldiki, ular professional darajada uy xizmatkorlari funksiyalarini bajara boshladilar, ayrim hollarda ko'pchilik avlodlar davomida ushbu sinfdan o'ziga xos hayot tarzi, urf-odatlar, an'analar shakllandi.

Industrial, ya'ni rivojlangan kapitalistik va sotsialistik jamiyatda sanoatning rivojlanishi uy xizmatkorlari sonining keskin kamayishiga olib keldi. Ushbu davrda iqtisodiyotning bosh vazifasi bo'lib ommaviy tovar ishlab chiqarish bo'lgan fabrika turidagi ishlab chiqarish ya'ni ijtimoiy muhitni shakllantirdi, unga ko'ra juda ko'p sonli yollanma ishchilarning bir yoki bir necha xo'jayinlarga to'liq bo'ysinishini taqazo etdi. Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va sinfiy kurash asta sekinlik bilan shunga olib keldiki, fabrika ishchilarining ish haqi shaxsiy xizmatlar uchun to'lovlardan yuqori bo'la boshladi.

Industrial jamiyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi quyidagi ikki yo'nalish bo'yicha amalga oshdi:

*Birinchi*dan, uy xo'jaligidagi yumushlarning aksar qismi ayollar zimmasiga o'tadi. 2-rasmdagi sotsiologik tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kunlik mehnat bozorida ishlovchilarning 68 foizi erkak kishini tashkil etmoqda. Bu esa hozirgi jamiyatda ayol uy xo'jaligini yuritish uchun erkakka qaraganda bir necha barobar ko'p vaqt sarflashini anglatadi. O'zbekistonda va boshqa bir qator mamlakatlarda shunday milliy ana'nalar mustahkam o'rin topdiki, ro'zg'or faoliyati bo'yicha bir qator qiyin ishlar (yuvish, tozalash, xarid qilish, ovqat tayyorlash va hokazo) ayollar bajaradigan ish hisoblanadi.



2-rasm: So'ralganlarni jinsi bo'yicha tarkibi [12]



Ikkinchidan, avvallari oila a'zolari tomonidan (masalan, dehqon xo'jaliklarida) bajariladigan juda ko'p sonli xizmatlar kichik firmalar va xususiy tadbirkorlarga o'ta boshladi. Uy mehnatini yengillashtiradigan turli xildagi moslamalar (kir yuvish mashinalari, chang yutgichlar, oshxona kombaynlari va boshqalar) yaratildi, shuningdek, ularni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan korxonalar tizimi tashkil etildi. Jumladan, sobiq ittifoqda yakka tartibdagi buyurtmalar tayyorlovchi, kiyim-kechak va oyoq kiyimi, maishiy texnika, kimyoviy yuvish va hokazolar bilan shug'ullanuvchi aholiga maishiy xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan juda ko'p sonli korxonalar va tashkilotlar faoliyat yuritgan. Sanoat va qishloq xo'jaligining faoliyat yuritishini ta'minlovchi (texnikani ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish, yuklarni tashish, iqtisodiy va texnik tavsifga ega bo'lgan, ma'lumotlarni taqdim etish) ishlab chiqarish tavsifiga ega bo'lgan xizmatlar keng tarqala boshladi.

Xizmatlar sektorining kengayishi ham kapitalistik ham sotsialistik davlatlar iqtisodiyotida vujudga kela boshladi. Ushbu ijtimoiy-siyosiy tizimlardagi xizmat faoliyati xarakteridagi farq asosan shundan iborat ediki, sotsialistik davlatlarda bepul xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar soni ko'p bo'lsa, kapitalistik davlatlarda pulliklari ko'p edi. Ya'ni ko'pchilik hollarda ular konkret iste'molchining cho'ntagidan emas, balki davlat budjetidan to'lana boshladi. Undan tashqari, sobiq ittifoqda xizmat faoliyati sohasi qarib to'liq davlat tomonidan monopollashtirilgandi (xususiy tadbirkorlik qonun tomonidan taqiqlangandi). Kapitalistik davlatlarda esa foydani olishga mo'ljallangan pullik tijorat xizmatlari keng tarqalgandi. Natijada kapitalistik davlatlarda aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun xizmatlar qiymat hisoblangan, lekin xizmatlar sifati va xilma xilligi bilan sotsializm sharoitidagilardan ancha ustun turgan. Uning asosiy sababi turli xildagi xizmat firmalari o'rtasidagi kuchli raqobatning mavjudligi hisoblangan. Xizmat faoliyatining xususiyati shundayki, u bilan asosan xususiy shaxslar, kichik firmalar yoki yirik korxonalarining ixtisoslashtirilgan maxsus bo'linmalari shug'ullanishadilar. Shu sababli sotsializmga xususiy tadbirkorlikni taqiqlash xizmat sohasini rivojlantirishga to'siqlik qildi.

Postindustrial jamiyat sanoati rivojlangan davlatlarda XX asr ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlandi. Unda faoliyatning asosiy turi bo'lib, tovar ishlab chiqarish emas, balki axborotni qayta ishlash va xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi. Shu sababli sivilizatsiyaning postindustrial rivojlanish bosqichi "axborot jamiyati" va "xizmatlar iqtisodiyoti" deb nomlanadi. D. Bell 1999-yilda quyidagicha ta'rif beradi: "avvalambor bu xizmatlarga asoslangan jamiyatdir". Bugungi kunga kelib qo'shma Shtatlarda 70% dan ziyod ishchi kuchi xizmat ko'rsatish sohasida band^[13]. Xizmatlar har qanday jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Agrar jamiyatda sharoitlarida bu asosan uy va shaxsiy xizmatlar bo'lgan. Industrial jamiyatda xizmatlar – bu ishlab chiqarishga nisbatan yordamchi faoliyat: kommunal xizmatlar, transport, moliya sohasi, ko'chmas mulkni boshqarish hisoblangan.

Postindustrial jamiyatda xizmatlarning yangi turlari keng tarqala boshlandi. Bular gumanitar-ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va professional xizmatlar, tahlil va rejalashtirish, dizayn, dasturlashtirish va shu kabilar. Iqtisodiyot klassiklarining tasavvurlarida (marksizmni qo'shgan holda) xizmatlar noishlab chiqarish faoliyati, deb hisoblangan, chunki boyliklar tovarlar bilan assotsiatsiyalashgandi, sartaroshlar, ofitsiantlar, advokatlar milliy boylikni ko'paytirmas edi. Albatta, ta'lim va sog'liqni saqlash insonlar imkoniyatlarini oshiradi va aholining salomatligi mustahkamlanishiga imkoniyat yaratadi, professional xizmatlar esa, korxonalar va jamiyat unumdorligining oshishini ta'minlaydi. Postindustrial jamiyatning rivojlanishi shuni talab qiladiki, imkoni boricha ko'proq insonlar oliy ma'lumotga ega bo'lishlari, abstrakt-konseptual fikrlash tajribasiga ega bo'lishlari va texnik, harfli-raqamli uslublarni egallashlari lozim".

Rivojlangan g'arb davlatlari misolida postindustrial jamiyatning shakllanishini kuzatish mumkin. (Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, postindustrial jamiyat hali ham shakllanish bosqichidadir). Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish o'z ichiga xizmat faoliyatini rivojlantirishning quyidagi uch davomiy bosqichini oladi.

1. Sanoatning rivojlanishi transport xizmatlari va umuman tovar harakati bilan bog'liq xizmatlarning keng tarqalishiga olib keladi;
2. Ne'matlarni ommaviy iste'mol qilish sharoitida taqsimot sohasining o'sishi boshlanadi (ulgurji va chakana savdo), moliyaviy xizmatlar, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, sug'urtalash;
3. Ovqatlanish uchun sarflanadigan oilaviy daromad hissasi kamayadi. Bo'shagan mablag'larni aholi dastlab uzoq foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishga (kiyim-kechak, avtomobillar) va ko'chmas mulkka, keyinchalik esa qiymatbaho tovarlar xarid qilishga va dam olishga sarflaydi. Shu tariqa shaxsiy xizmatlar kengayadi. Ular jumlasiga restoranlar, mehmonxonalar, avtomobil ustaxonalari, sayohat, dam olish va sport industriyasi kabilar kiradi. Xizmat ko'rsatish sohasining asosiy sohasilari bo'lmish sog'liqni saqlash, ta'lim, turizm va shu kabilarga keskin qiziqish kuchayadi. Bularning barchasi xizmatlarning yangi turlarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, sanoati rivojlangan davlatlarda ijtimoiy, taqsimot va maishiy xizmat sohaslarida band bo'lganlar soni ortib bordi. XXI asr boshlarida ishlab chiqaruvchilarga xizmatlar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasi bilan bog'liq xizmatlar tez sur'atlar bilan o'sdi.

Xizmat ko'rsatish ma'lum davrlarda turli holatlarda namoyon bo'ladi. Insoniyat olami tomonidan ehtiyojning talabga ta'siri o'zgarishi, ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi yangi turdagi talab paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa xizmatlar sohasini ham chetlab o'tmadi. Innovatsion yuqori samaradorlikka ega bo'lgan tex-



nika – texnologiyalardan barcha tarmoqlar va sohalarda yoppasiga foydalanish makroiqtisodiyot darajasida ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol fazalarida resurslarning ortiqcha sarf bo'lishining oldini olishga ko'maklashdi. Yuqori texnologiyalarning bunday ko'magi raqamli xizmatlar shaklida namoyon bo'ldi. Aynan raqamli xizmatlar qishloq joylarida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli xizmatlar nazariyasi to'raligicha hali shakllanmagan ammo ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan ilmiy adabiyotlarda ularning nazariy qarashlarini uchratish mumkin. Masalan, "Postindustrial iqtisodiyot" (D. Bell), "Axborotlashgan iqtisodiyot" (O. Toffler), "Megaiqtisodiyot" (V. Kuvaldin), "Axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot" (I. Niiniluto), "Texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot" (B. Geyts), "Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot" (D. Tapskott) ^[14] kabi ilmiy qarashlarini ilgari surishgan.

Raqamli xizmatlar – bu ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish jarayonida elektron axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida cheklangan resurslardan optimal foydalanishga insonning yashash va xo'jalik faoliyatini yaxshilashga ko'maklashadigan xizmat ko'rsatishning zamonaviy shaklidir ^[15].

O'zbekiston Respublikasida raqamli xizmatlar rivojlanishiga asosiy qadam bo'lib, 2015-yil 9-dekabrda "Elektron hukumat" to'g'risidagi O'RQ-395-son Qonuni ^[16] qabul qilinganligini aytishimiz mumkin. Ungacha "Elektron raqamli imzo", "Axborotlashtirish to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, qonunlari raqamli xizmatlarning rivojlanishiga asosiy poydevor vazifasini bajardi. Bu esa mamlakatda iqtisodiy muhitni yaxshilash, dinamik faoliyatni oshirish uchun xizmat qildi.

Raqamli xizmatlarning asosiy qulayliklaridan biri mamlakatning chekka qishloq joylari hududlarigacha xizmat imkoniyatining mavjudligi bo'lib, bunday raqamli xizmatlar quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi (3-rasm):



**3-rasm: Raqamli xizmatlarni shakllantiruvchi asosiy vositalar ^[17]**

Mufassal aytganda raqamli xizmatlar bugungi insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylangan va aylanib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bizning mamlakatimiz ham, dastlabki kunlardan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mavjud resurslar va usullardan maqsadli foydalandi. Biroq aholi talabining turlicha o'zgarishi oqibatida, iqtisodiy resurslardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi kunga kelib, mamlakatda resurslar kam talab etadigan xizmatlar sohasini tanlash, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va keng ko'lamda foydalanish kerak ekanligini ko'rsatmoqda. Sababi xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda lokomotiv vazifasini bajaradi. Shu asosdan kelib chiqib xizmat ko'rsatishning mazmun mohiyatini to'laroq anglash zarurati yanada kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo. Abdullayev "Fundamentals of market economy 100 questions and 100 answers" –Tashkent – "Labor" – 1997 120 pages.
2. Slovar russkogo yazyka / Sost.S. I. Ojegov. – M.: Gos.izd-vo slovarey, 1953. -776 p.
3. Smith A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. –M.: Eksmo, 2009. – P. 104.
4. Muxammedov M. M. And others. Theoretical foundations of the development of the service sector and tourism. Monograph. –Samarkand: Zarafshon, 2017. – 31b.
5. Kotler, F., Marketing management. Ex press-course. – 2nd ed. / Per. s angl. under red. Bojuk S. G. SPb.: Peter, 2006.- 464 p.
6. Tuxliyev I. S., Hayitboyev R., Ibodullayev N. E., Amriddinova R. S. Fundamentals of Tourism: Textbook – S.: SamISI, 2010 – 247 p.
7. Ochilov I. Types of services in the context of market relations and their description. // Development of services, services and tourism: problems and their solutions. Monograph. –T.: "ECONOMY-FINANCE", 2008, p.37.
8. Pardayev M. Q. etc. "Economy of the service sector". Study guide. – T.: "ECONOMY-FINANCE", 2014. -384 p.
9. Mardonov B. B. "Service sector and employment" Monograph. Publishing house "Fan" of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Tashkent – 2013, 128 pages.
10. Gelbreyt D. K. Ekonomicheskie teorii i tseli obshchestva / per. s angl. –M: Progress 1979. pp. 87-88.
11. Bell D. Gryadushchee postindustrialnoe obshchestvo. Experience sotsialnogo prognozirovaniya / per. s angl. M: Academia 1999 s. 169.
12. Mardonov B. B., Mustafoyev G'. S. Study and regulation of the daily labor market (results of a sociological survey). Risola. –Samarkand-2020-y. –48 p.
13. Fiscal year 2014 APPENDIX Budget of the U. S. GOVERNMENT 751-pp.
14. S. S. Gulyamov, R. H. Ayupov, O. M. Abdullayev, G. R. Baltabayeva. Blockchain technologies in the digital economy. T.: TMI, "Economy-Finance" Publishing House, 2019, 8 pages.
15. Description given by the author
16. Issue 237 (6420) of the newspaper "People's Word" dated December 10, –2015.
17. Compiled by the author based on the author's research.
18. Taylakova D. B. Qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ahamiyati //Innovatsion texnologiyalar. – 2022. – T. 2. – №. 2 (46). – S. 111-116.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

